

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyat
yagona aksiyadorining qarori**

2022-yil 26-dekabr
soat 17:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyat tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz aksiya paketi jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi va jamiyat Ustaviga muvofiq 2022-yilning 26-dekabr kuni yakka tartibda qabul qilindi va yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

1. Affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida 2023-yil davomida tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma’qullash.

Affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida 2023-yil davomida tuzilishi mumkin bo‘lgan umumiy qiymati 45 505 000 000 (qirq besh milliard besh yuz besh million) so‘mlik 21 ta bitimlar ro‘yxati shakllantirildi hamda ma’qullash uchun taqdim qilindi (*ilova qilinadi*).

Birinchi masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):

1.1. Affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida 2023-yil davomida tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

1.2. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Usarov) yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga qat’iy rioxaya qilsin.

2. Jamiyatning “Xayriya va homiylik faoliyati to‘g‘risida”gi tartibini tasdiqlash to‘g‘risida.

Jamiyat ijroiyligi organi tomonidan Jamiyatning “Xayriya va homiylik faoliyati to‘g‘risida”gi tartibi loyihasi ishlab chiqildi hamda tasdiqlash uchun taqdim etildi (*ilova qilinadi*).

Ikkinci masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):

2.1. Jamiyatning “Xayriya va homiylik faoliyati to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.2. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Usarov):

- tasdiqlangan tartib jamiyat faoliyatiga tatbiq etilishini ta‘minlasin va uning talablariga qat’iy amal qilinishini nazoratga olsin;

- Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot taqdim etish va e‘lon qilish qoidalari talablaridan kelib chiqib, mazkur qaror yuzasidan tegishli ma’lumot (muhim fakt)larni o‘rnatilgan tartibda oshkor qilinishi ta‘minlansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan
boshqaruvi raisi v.v.b.**


Y. Korjikov

A. Amirkulov

A. Rakhmanova


(Usarov) 
(Z. Bektayev) 
(Amirkulov)